O'ZBEKISTON KOMPOZITORLARI IJODIDA URMA-ZARBLI CHOLG'ULARNING NOAN'ANAVIY QO'LLANILISHI

Faxridinova Dilbar Lazizovna
O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi MESI
Ilmiy tadqiqot ishlari muhandisi, kompozitor
dilbarfakhridinova@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.22880328

Annotatsiya

Mazkur tezisda O'zbekiston kompozitorlari ijodida urma-zarbli cholg'ularning noan'anaviy qo'llanilishi masalasi zamonaviy kompozitorlik tafakkuri nuqtayi nazaridan yoritiladi. Urma-zarbli cholg'ularning an'anaviy ritmik funksiyasi bilan bir qatorda, tembr, faktura, tovush tasviri va akustik effekt yaratish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning amaliy namunasi sifatida muallifning «Noise Ocean» («Okean shovqini») asari ko'rib chiqiladi.

Shuningdek, asarda okeandagi tabiiy hodisalar – suv harakati, shamol, momaqaldiroq, kit va delfin tovushlari ma'lum tarkibdagi urma-zarbli cholg'ularning tembri va noan'anaviy ijro usullari orqali ifodalangan. Bu esa asarning eksperimental xarakterini va muallifning individual kompozitorlik uslubini yaqqol namoyon etadi.

Kalit so'zlar: kompozitor, urma-zarbli cholg'ular, noan'anaviy, tafakkur, tembr, ijro usuli, «Noise Ocean», eksperiment.

Аннотация

В настоящем тезисе рассматривается проблема нетрадиционного использования ударных инструментов в творчестве композиторов Узбекистана с точки зрения современного композиторского мышления. Наряду с традиционной ритмической функцией ударных инструментов анализируются их возможности в создании тембровых, фактурных, звукоизобразительных и акустических эффектов. В качестве практического примера исследования рассматривается авторское произведение «Noise Ocean» («Шум океана»).

В произведении природные явления океана – движение воды, ветер, гром, звуки китов и дельфинов передаются посредством тембров определённого состава ударных инструментов и нетрадиционных исполнительских приёмов. Это наглядно демонстрирует экспериментальный характер произведения и индивидуальный композиторский стиль автора.

Ключевые слова: композитор, ударные инструменты, нетрадиционность, мышление, тембр, исполнительские техники, «Шум океана», эксперимент.

Abstract

This thesis examines the unusual use of percussion instruments in the works of uzbek composers from the perspective of contemporary compositional thinking. Alongside the traditional rhythmic function of percussion instruments, their potential for creating timbral, textural, sound-imagery, and

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

acoustic effects is analyzed. The author's composition «Noise Ocean» is considered as a practical example of the study.

In the composition, natural phenomena of the ocean – the movement of water, wind, thunder, whale and dolphin sounds – are represented through the timbres of a specific set of percussion instruments and unusual performance techniques. This clearly demonstrates the experimental character of the composition and reveals the author's individual compositional style.

Keywords: composer, percussion instruments, unusual, thinking, timbre, performance techniques, «Noise Ocean», experiment.

Bugungi kunda zamonaviy kompozitorlik ijodiyotida musiqiy cholg'ularning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytirish, ularning yangi tembr va akustik xususiyatlarini izlash muhim ijodiy yo'nalishlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, urma-zarbli cholg'ularning zamonaviy kompozitorlik tafakkuridagi o'rni an'anaviy ritmik vazifalar doirasidan chiqib, yangi badiiy-ifodaviy imkoniyatlar bilan boyib bormoqda.

Musiqiy amaliyotda urma-zarbli cholg'ular, avvalo, ritmik asosni mustahkamlash, metr va pulsni belgilash hamda asarning ritmik tuzilishini shakllantirish kabi vazifalar bilan bog'liq. Biroq, zamonaviy kompozitorlik tafakkurida mazkur cholg'ularning imkoniyatlari sezilarli darajada kengayib, tembr, faktura va tovush tasvirini yaratish vositasi sifatida ham qo'llanilmoqda.

Darhaqiqat, noan'anaviy qo'llanilish tushunchasi – cholg'uning odatiy funksiyasidan tashqari imkoniyatlarini badiiy jarayonga jalb etishni anglatadi. Bunda cholg'uning qanday tovush chiqarishi bilan bir qatorda, qanday usulda ijro etilishi, tembr va boshqa akustik xususiyatlari ham kompozitsion materialga aylanadi. Shunday yondashuv natijasida urma-zarbli cholg'ular faqat ritmik vosita sifatida emas, balki mustaqil musiqiy obrazni shakllantiruvchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, tabiiy hodisalar, muayyan muhit yoki abstrakt tovush obrazlarini yaratishda ularning tembr imkoniyatlari alohida ahamiyat kasb etadi.


O'zbekiston kompozitorlari ijodida urma-zarbli cholg'ularning noan'anaviy ijro imkoniyatlarini ko'rsatadigan amaliy namunalardan biri «Noise Ocean» [1] asaridir. Mazkur asar 2022-yil 14-aprelda O'zbekiston davlat konservatoriyasi huzurida tashkil etilgan «Zamonaviy musiqa laboratoriyasi» doirasida o'tkazilgan «Urma-zarbli cholg'ular uchun yozilgan eng yaxshi asar» tanlovida ijro etilgan.

Asarning konseptual mazmuni okean muhitidagi tabiiy hodisalarni faqat urma-zarbli cholg'ular vositasi orqali ifodalashga asoslangan. Mazkur asarda suv harakati, shamol, momaqaldiroq, kit va delfin tovushlari turli tembrlar va ijro usullari orqali tasvirlanadi.

Asar uchun tanlangan cholg'ularning har biri muayyan badiiy vazifaga ega. **Bass drum** – shamol va momaqaldiroq tovushlarini, **tam-tam** – chuqur rezonans va dinamik o'zgarishlarni, **tibetian bowl** – okeandagi sirli ichki harakatlarni ifodalashga xizmat qiladi. **Rain stick** – yomg'ir va suv oqimining tovushini, **congos** va **magic ball** – kitlar ovozini eslatuvchi tembrni, **flexaton** bilan torli cholg'ular **kamoni** – delfinlarning qisqa tovushini ifodalash uchun qo'llanilgan. **Thunder sheet** – kuchli tabiiy hodisalar va chaqmoq effektini yaratishda ishlatilgan. Shuningdek, suv bilan to'ldirilgan to'rtta 10 litrlik plastmassa idish suvning turli holatlarga xos tovushlarni jonlantirish uchun kompozitsion vosita sifatida tanlangan. Mazkur cholg'ularning tanlanishi asarning umumiy konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq. Har bir cholg'u ma'lum tabiiy hodisaning akustik obrazini yaratadi. Natijada, cholg'u tarkibi oddiy ijro

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

vositalari yig'indisi bo'lib qolmay, asarning obrazli mazmunini shakllantiruvchi kompozitsion tizimga aylanadi.



«Noise Ocean» asarida urma-zarbli cholg'ularning noan'anaviy qo'llanilishi faqat cholg'ularning noodatiy tarkibini tanlash bilangina cheklanmagan. Balki, tovush hosil qilish usulining o'zi ham kompozitsion material sifatida qaraladi. Asarda tirnoq bilan tirnash, suvni qo'l bilan urish, thunder sheetni silkitish kabi kengaytirilgan ijro usullaridan foydalaniladi. Mazkur usullar orqali tabbiy tovushlarga yaqin bo'lgan turli akustik effektlar yaratiladi. Bunday yondashuvda ijrochi cholg'udan faqat belgilangan an'anaviy usulda tovush hosil qilish bilan cheklanmaydi, aksincha, ijrochining jismoniy harakati, cholg'u materiali va undan hosil bo'ladigan tovush o'rtasidagi munosabat ijodiy jarayonning tarkibiy qismiga aylanadi. Shu jihatdan, noan'anaviy ijro texnikalari kompozitorning yangi tembrlarni izlash va mavjud cholg'ularning akustik imkoniyatlarini kengaytirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

«Noise Ocean» asarining muhim xususiyatlaridan biri – tembrning yetakchi badiiy-ifodaviy vosita sifatida qo'llanilishidir. Asarda ritm asosiy kompozitsion markaz sifatida emas, balki umumiy tovush jarayonini tashkil etuvchi vositalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Asosiy e'tibor esa tovushning rang-barangligi, dinamikasi, rezonansi va fakturasiga qaratiladi. Bu yondashuv zamonaviy kompozitorlik tafakkurida urma-zarbli cholg'ularning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot jarayoni yana shuni ko'rsatadiki, an'anaviy akademik cholg'ular bilan bir qatorda, kundalik hayotdagi predmetlardan ham kerakli akustik xususiyatga ega tovush manbai sifatida foydalanish mumkin ekan. «Noise Ocean» dagi suv bilan to'ldirilgan plastmassa idishlardan foydalanish bunga yaqqol misoldir. Bu holatda kompozitor uchun cholg'uning an'anaviy maqomi emas, balki uning muayyan badiiy g'oyani ifodalash imkoniyati muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, zamonaviy kompozitor tafakkurida «cholg'u» tushunchasi kengayib, turli akustik manbalarni ham qamrab olishi mumkin.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

Umuman olganda, mazkur ijodiy tajriba urma-zarbli cholg'ularning zamonaviy kompozitorlik ijodiyotidagi imkoniyatlari faqat ritmik funksiyalar bilan cheklanmasligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tembr, shovqin, rezonans, dinamika va noan'anaviy ijro texnikalarining o'zaro uyg'unligi orqali urma-zarbli cholg'ular mustaqil badiiy-tasviriy vositaga aylanishi mumkin. O'ylaymizki, ijodiy jarayonlarda yaratilgan «Noise Ocean» kabi zamonaviy eksperimental asarlar O'zbekiston kompozitorlik ijodiyotining yangi bosqichga ko'tarilishida beminnat xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Fakhridinova D. «Noise Ocean». Partiture. -T.: 2022. -3 p.
2. Solomon S. How to Write for Percussion: A Comprehensive Guide to Percussion Composition. 2nd ed. -New York: Oxford University Press, 2016. -288 p.
3. Андреева О. Ударні інструменти сучасного симфонічного оркестру. – К.: Муз. Україна, 1985. -72 с.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.